Ibragimova. Sh.O.
Farg‘ona davlat universiteti, PhD, katta o‘qituvchi
Ne’matov. I. B.
Farg‘ona davlat universiteti magistranti

INKLYUZIV TA’LIM MUHITIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Inklyuziv ta’lim muhitida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimiz siyosatida ta’lim tizimini tubdan isloh qilish ishlari olib borilmoqda va inklyuziv ta’lim tizimi jadal rivojlanmoqda. Shu bois, ushbu tizimning tarkibiy qismi sifatida ommaviy kitob o‘qish madaniyatini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi, deb hisoblayman. Texnologiya jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda insonlarning kitob mutolaasiga bo‘lgan qiziqishi biroz susaygani rost. Ilgari esa kitobxonlar soni ancha ko‘p bo‘lgan. Buning sababi sifatida odamlarning bo‘sh vaqtini unumli o‘tkazish vositasi sifatida kitob o‘qishga ko‘proq e’tibor berganini ko‘rsatish mumkin. Hozirgi kunda bo‘sh vaqtni unumli o‘tkazish deb insonlar faqatgina dam olish va do‘stlar bilan uchrashuvlar tashkil qilish tushunilmoqda. Rivojlanayotgan davlatlarga nazar soladigan bo‘lsak, aksar insonlargina hozirda kitob mutolaasi bilan band. Ta’limda esa haminqadar vaziyat yaxshi. O‘quvchi yoshlar vazifalari sabab ham kitob mutolaasi bilan band bo‘la olishmoqda. Buning uchun fidoiy ustozlarimizga rahmat.

Endi inklyuziv ta’limdagi kitobxonlik madaniyatini ayni damdagi holatiga nazar solsak. Inklyuziv ta’lim o‘zi nima degan savol tug‘ilishi tabiiy, shunday ekan bu haqida qisqacha to‘xtalib o‘tsam. Dunyo aholisi ikkinchi jahon urushidan so‘ng sezilarli darajada o‘smoqda va qarabsizki ba’zi bir nuqsonga ega insonlar ham ko‘paymoqda. Avvallari ularning soni foiz nisbatiga kam bo‘lganligi uchun e’tibor talab qilmas edi. Bugungi kunga kelib, bu ko‘rsatkich sezilarli o‘sdi. Ularning jamiyatda ham o‘z o‘rinlarini topish uchun esa butun dunyoda turli tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Butun dunyo deganda O‘zbekistonimizni ham nazarda tutmoqdaman. Yurtboshimizning so‘ngi yillardagi ta’limdagi islohotlari ortidan juda ko‘p ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Oddiy misol sifatida maktablarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yana-da takomillashtirish chora-chadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq o‘quvchilarga teng shart-sharoitlar yaratish uchun, inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unda:

“Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tasarrufidagi O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik pedagogik respublika tashxis markazi tuzilmasi tarkibida “Inklyuziv ta’lim laboratoriyasi bo‘limi” tashkil etildi.

2021-2022-o‘quv yilidan boshlab respublika bo‘yicha tajriba-sinov tariqasida 31 ta umumta’lim maktablari 46 ta inklyuziv sinflar tashkil etilib, ularda 87 nafar, 4 ta korreksion maktabdagi 4 ta sinflarda 35 nafar bolalar ta’limga jalb etildi.

2022-2023-o‘quv yilida inklyuziv ta’lim joriy etilgan umumta’lim maktablari soni 195 taga

yetib, ularda 504 nafar imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta’limga qamrab olindi.

Tashkil etilgan inklyuziv sinflarda ta’lim olayotgan o‘quvchilarga 2021/22-o‘quv yilida 51 nafar, 2022-2023-o‘quv yilida esa 248 nafar pedagoglar biriktirildi.

Inklyuziv ta’lim tizimini bosqichma-bosqich rivojlantirib borish va ko‘lamini kengaytirish maqsadida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 29-avgustdagi 274-sonli buyrug‘i bilan 2023-2024-o‘quv yilida inklyuziv ta’lim joriy etilishi tavsiya etilgan 390 ta maktablarning qo‘shimcha ro‘yxati tasdiqlandi.

Yangi o‘quv yilidan boshlab, ota-onalarning xohish va istaklarini inobatga olgan holda respublikamizning barcha tuman va shaharlarda inklyuziv maktablar tashkil etildi.

Yangi o‘quv yilining 15 sentyabr holatiga kelib 208 ta tuman (shahar) larning 417 ta maktablarida inklyuziv sinflar tashkil etilib, unga ayni paytda 734 nafar o‘quvchilar qamrab olingan.

Inklyuziv va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar tashkil etiladigan umumta’lim maktablarning boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, maxsus o‘qituvchilari va amaliyotchi psixologlari uchun 7-21-avgust kunlari Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida 2023-2024-o‘quv yilida nklyuziv ta’lim joriy etilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining direktorlari, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va psixologlari uchun 72 soatga mo‘ljallangan maqsadli malaka oshirish kurslari tashkil etildi. Kurs davomida 1431 nafar pedagoglarning malakasi oshirildi.”[19]

Yuqoridagi barcha ma’lumotlar yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar mevasidir. Endi esa kitobxonlik qismiga qaytsam. Bilamizki, hozirgi kunda kitob ishlab chiqarish arzon emas. Misol uchun ko‘zi ojiz insonlar uchun badiiy adabiyotlar ishlab chiqish tonnarxi juda qimmatga tushadi. Kitobning mualliflik huquqini bir chetga surgan holda faqatgina kitobni o‘zini yaratish katta mehnat va harajat talab qiladi. Va bunga chiroyli sifatida “Mutolaa” loyihasini ayta olaman. Ular dunyoga mashhur o‘zbek va jahon adabiyotlarini audio shaklda kitobxonlarga qisman pullik lekin juda katta qismi tekinga taqdim etilmoqda. Misol uchun shaxsan o‘zim ham muntazam ravishda foydalamnib kelaman ularning ilovasidan.

Ko‘zi ojizlar uchun maxsus kitoblar yaratish bo‘yicha ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. “O‘zbekistonda ko‘zi ojizlar kutubxonalari soni 2019 yilda 20taga oshib, jami 123taga yetdi. Bu kutubxonalarga o‘tgan yil davomida Brayl yozuvidagi, 11 nomdagi 1700dan ortiq kitoblar tarqatilgan. 2019 yil natijalariga ko‘ra, respublika bo‘yicha ko‘zi ojizlar kutubxonalarining umumiy fondi 562 168ta kitobni, foydalanuvchilar esa 80 543 nafarni tashkil qilgan.”[20]

Dunyo miqyosida inklyuziv ta’lim va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish borasida ilg‘or tajribalar shakllanib bormoqda. Rivojlangan davlatlar bu sohada imkoniyati cheklangan shaxslarning ta’lim va madaniy hayotda teng ishtirokini ta’minlashga alohida e’tibor qaratadi. Masalan, Finlyandiya, Yaponiya, AQSh, Kanada va Buyuk Britaniya singari mamlakatlarda inklyuziv ta’lim tizimi faqat sinfga integratsiya bilan cheklanmay, balki o‘quvchilarning kitobxonlik ehtiyojlarini ham qamrab oladi.

[19] https://uzedu.uz/uz/news/1271
[20] https://kun.uz/news/2020/01/16/2019-yilda-kozi-ojizlar-uchun-17-mingdan-ortiq-kitob-chop-etildi

Finlyandiya tajribasida har bir maktabda maxsus o‘quv resurs markazlari mavjud bo‘lib, ular audio, elektron va Brayl shaklidagi kitoblarni bepul taqdim etadi. Davlat kutubxonalari nogironligi bo‘lgan bolalar uchun maxsus “Accessible Library” (kirish imkoniyatli kutubxona) xizmatini yo‘lga qo‘ygan. Bu tizim orqali har bir foydalanuvchi o‘ziga mos o‘quv materiallarini masofadan turib buyurtma qila oladi.

AQShda esa “National Library Service for the Blind and Print Disabled” loyihasi faoliyat yuritadi. Ushbu kutubxona tarmog‘i ko‘zi ojiz va jismoniy nogironlar uchun minglab audio va Brayl kitoblarni bepul yetkazib beradi. Bundan tashqari, barcha davlat maktablarida o‘qituvchilar inklyuziv o‘quvchilarning o‘qish qobiliyatiga moslashtirilgan adabiy materiallar bilan ishlaydi.

Ushbu xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’limda kitobxonlikni rivojlantirish nafaqat o‘qish imkonini yaratish, balki insonni jamiyatning faol a’zosiga aylantirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston uchun ham ushbu tajribalardan ilhomlanib, milliy “Inklyuziv kutubxona” platformasini yaratish, barcha o‘quv markazlari va maktab kutubxonalarida audio va Brayl kitoblar fondini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida inklyuziv ta’limning qamrovi kengayib borayotgani, bu tizimda faoliyat yurituvchi pedagoglarning soni yildan yilga oshayotgani — ijobiy o‘zgarishlardan dalolat beradi. Shu bilan birga, jamiyatda kitobxonlikni qadrlash, o‘qish orqali insonning dunyoqarashini boyitish g‘oyasi yana-da chuqur singdirilishi lozim. Texnologiya taraqqiyoti insonlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kamaytirayotgan bir paytda, aynan inklyuziv ta’lim muhitida bu jarayonni rag‘batlantirish yanada muhimdir. Zero, kitob inson tafakkurini o‘stiradi, bilimga chanqoqlikni kuchaytiradi va ijtimoiy integratsiyani qo‘llab-quvvatlaydi.

Shunday qilib, inklyuziv ta’lim tizimida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish — nafaqat ta’lim samaradorligini oshirish, balki insoniy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladigan dolzarb vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 16.07.2024 yildagi PQ-257-son
2. https://kun.uz/08840161
3. https://uzedu.uz/uz/news/1271
4. U.S. Library of Congress. (2023). National Library Service for the Blind and Print Disabled (NLS). Retrieved from https://www.loc.gov/nls/
5. Ylänne, H. (2014). Finland Accessibility Guidelines for Public Libraries. International Federation of Library Associations and Institutions (IFLA). Retrieved from https://library.ifla.org/1284/1/123-ylanne-en.pdf
6. Takala, M., Pirttimaa, R., & Törmänen, M. (2009). Towards Inclusive Schooling Policies in Finland. Scandinavian Journal of Disability Research, 11(4), 257–268. Retrieved from https://sjdr.se/articles/270